



**RAQAMLASHTIRILGAN JAMIYAT SHAROITIDA YOSHLAR
TARBIYASIDA JISMONIY MEHNATNING KAMAYISHI VA UNING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI (YAPONIYA, XITOIY VA
JADIDLAR TA'LIMI MISOLIDA)**

Ziyoda Olimova Olim qizi

Navoiy Davlat Universiteti

magistranti

E-mail: ziyodaolimova4@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada raqamlashtirilgan jamiyat sharoitida yoshlar tarbiyasida jismoniy mehnatning kamayishi va uning ijtimoiy-psixologik oqibatlari ilmiy-nazariy hamda qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhitning keng tarqalishi natijasida yoshlar ongida mehnat qadriyatining susayishi, irodaviy barqarorlikning zaiflashuvi, ijtimoiy moslashuv muammolari hamda ruhiy tushkunlik holatlarining ortib borayotgani asoslab beriladi. Tadqiqotda jismoniy faollik yetishmasligining sog'liq, psixik holat va oilaviy munosabatlarga salbiy ta'siri ochib berilgan.*

Shuningdek, Sharq ta'lim modellari — Yaponiya va Xitoy tajribasi, xususan “Osoji” an'anasi hamda “Anji Play” metodikasi tahlil qilinib, ularning yoshlar tarbiyasidagi amaliy ahamiyati yoritilgan. Jadid ma'rifatchilarining ta'lim-tarbiya qarashlari asosida aqliy va jismoniy mehnat uyg'unligining nazariy asoslari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari jismoniy mehnat shaxsning nafaqat jismoniy sog'lomligi, balki ruhiy barqarorligi, ijtimoiy mas'uliyati va milliy o'zligini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Maqola yakunida zamonaviy ta'lim tizimiga mehnat elementlarini integratsiya qilish, raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish va oilaviy muloqotni mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.



Kalit soʻzlar: Raqamlashtirilgan jamiyat, yoshlar tarbiyasi, jismoniy mehnat, ijtimoiy-psixologik oqibatlar, raqamli qaramlik, gipodinamiya, jadid pedagogikasi, Anji Play, Yaponiya taʼlim modeli, irodaviy tarbiya, milliy oʻzlik, raqamli gigiyena.

АННОТАЦИЯ

В статье на основе научно-теоретического и сравнительного анализа исследуется проблема снижения роли физического труда в воспитании молодежи в условиях цифровизированного общества и его социально-психологические последствия. Распространение цифровых технологий, социальных сетей и виртуальной среды приводит к ослаблению ценности труда, снижению волевой устойчивости, возникновению трудностей социальной адаптации и росту психологической нестабильности среди молодежи.

В работе раскрывается негативное влияние недостаточной физической активности на состояние здоровья, психику и семейные отношения. Проанализирован опыт восточных образовательных моделей — Японии и Китая, в частности традиция «Osoji» и методика «Anji Play», а также их значение в формировании ответственности и устойчивости личности. На основе педагогического наследия джадидских просветителей обоснована необходимость гармоничного сочетания интеллектуального и физического труда в системе воспитания. Результаты исследования показывают, что физический труд является важным фактором формирования не только физического здоровья, но и психологической устойчивости, социальной ответственности и национальной идентичности личности. В заключение предложены практические рекомендации по интеграции элементов трудового воспитания и формированию культуры цифровой гигиены в современной образовательной системе.

Ключевые слова: *Цифровизированное общество, воспитание молодежи, физический труд, социально-психологические последствия, цифровая зависимость, гиподинамия, педагогика джадидов, Anji Play,*



образовательная модель Японии, волевое воспитание, национальная идентичность, цифровая гигиена.

ABSTRACT: *This article examines the decline of physical labor in youth upbringing within the context of a digitalized society and analyzes its socio-psychological consequences through theoretical and comparative approaches. The rapid development of digital technologies, social media platforms, and virtual environments has significantly transformed young people's lifestyles, leading to a gradual weakening of labor values, reduced volitional stability, difficulties in social adaptation, and increasing psychological vulnerability.*

The study highlights the negative impact of insufficient physical activity on physical health, mental well-being, and family relationships. Particular attention is given to the experience of Eastern educational models, especially Japan and China. The Japanese tradition of "Osoji" and the Chinese "Anji Play" methodology are analyzed as effective practices that integrate responsibility, resilience, and physical engagement into the educational process. Furthermore, the pedagogical heritage of the Jadid reformers is explored to substantiate the necessity of harmonizing intellectual and physical labor in modern education.

The findings demonstrate that physical labor plays a crucial role not only in maintaining physical health but also in strengthening psychological stability, social responsibility, and national identity. The article concludes with practical recommendations aimed at integrating labor-based educational elements, promoting digital hygiene, and reinforcing family communication within contemporary educational systems.

Keywords: *Digitalized society, youth upbringing, physical labor, socio-psychological consequences, digital addiction, hypodynamia, Jadid pedagogy, Anji Play, Japanese educational model, volitional development, national identity, digital hygiene.*

XXI asr boshidan boshlab insoniyat hayotida raqamlashtirish jarayonlari mislsiz sur'atlarda rivojlandi. Internet texnologiyalari, sun'iy intellekt, masofaviy



ta'lim va raqamli iqtisodiyot zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayonlar bir tomondan inson hayotini yengillashtirib, bilim olish va axborotga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan yoshlar tarbiyasi va shaxs kamolotiga doir qator muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Bugungi kunda yoshlar orasida "yengil va tez natija beruvchi" hayot tarziga qiziqishning ortib borayotgani, oson daromad topishga intilish, mehnatning qadrsizlanishi va jismoniy faollikning kamayishi jamiyatni jiddiy tashvishga solmoqda. Ayrim hollarda esa bu holatlar yoshlarning ruhiy tushkunlikka tushishi, ijtimoiy moslashuvning susayishi va hatto o'z joniga qasd qilish kabi fojiali oqibatlarga olib kelayotgani kuzatilmoqda. Jismoniy mehnatning kamayishi oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik inqirozlar, xususan, oilalardagi ajralishlar va erkaklar o'rtasidagi "ijtimoiy infantilizm" muammolarini ilmiy tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega. Tadqiqotning asosiy maqsadi — zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida jismoniy mehnatning ahamiyatini asoslab berish hamda yoshlar tarbiyasida muvozanatli yondashuv zarurligini ilmiy jihatdan ko'rsatib berishdan iborat. Buning uchun Sharq mamlakatlari (Xitoy, Yaponiya) ta'lim tajribasi va jadidlar pedagogik merosidagi aqliy va jismoniy mehnat uyg'unligi masalalari qiyosiy o'rganiladi.

RAQAMLASHTIRILGAN JAMIYAT VA YOSHLAR HAYOT TARZIDAGI O'ZGARISHLAR

Virtual olam va “yengil hayot” illyuziyasi: dopamin tuzog'i va irodaviy inqiroz Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji insoniyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Biroq bu jarayon yoshlar tarbiyasida murakkab va ziddiyatli holatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, uyali telefonlar, ijtimoiy tarmoqlar va kompyuter o'yinlariga haddan tashqari berilish natijasida yoshlar orasida “raqamli qaramlik” (nomofobiya) kuchayib bormoqda. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardagi “layk”, “ko'rishlar soni” va qisqa videolar miyada dopamin gormonining tez va oson ajralishiga olib keladi. Bu esa insonni real hayotdagi uzoq muddatli mehnat, sabr va qat'iyat talab qiladigan jarayonlardan bezdiradi. Natijada yoshlar murakkab vazifalardan



qochishga, tez va yengil zavqlarni afzal ko'rishga odatlanib qolmoqda. Iroda esa aynan jismoniy va aqliy to'siqlarni yengish jarayonida shakllanadi. Jadid mutafakkiri Abdulla Avloniy "Badan tarbiyasi" haqidagi qarashlarida jismoniy quvvat va irodaning sustligi jamiyatni axloqiy tanazzulga olib borishini alohida ta'kidlagan[1]. Bugungi kunda yoshlardagi irodaviy zaiflikning asosiy sababi ularning jismoniy mehnatdan uzilib, "tayyor va yengil" virtual zavqlar olamiga asir bo'lib qolganidadir.

Soxta hashamat va noshukurlik: blogerlik madaniyatining ijtimoiy oqibatlari Instagram, TikTok kabi platformalar tobora "ideal hayot vitrinasiga" aylanib bormoqda. Ayrim blogerlar tomonidan namoyish etilayotgan hashamatli turmush tarzi, qimmat avtomobillar, sayohatlar va "oson boyish" haqidagi lavhalar yoshlar ongida real hayotdan yiroq bo'lgan noto'g'ri qadriyatlarni shakllantirmoqda. Bu holat "noshukurlik virusi"ning tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Ya'ni yoshlar o'z hayotini ijtimoiy tarmoqlardagi soxta tasvirlar bilan solishtirib, ota-onasining mehnatini mensimaslik, boriga shukr qilmaslik holatiga tushib qolmoqda. Natijada o'ziga nisbatan ishonchsizlik, doimiy norozilik va ruhiy tushkunlik kuchaymoqda. Shuningdek, "o'qimasdan ham boy bo'lish mumkin", "mehnatsiz muvaffaqiyatga erishish" kabi targ'ibotlar huquqiy va iqtisodiy savodxonligi yetarli bo'lmagan yoshlarni turli kiberfiribgarliklar, noqonuniy onlayn faoliyat va kriminallashtirish o'yinlarning qurboniga aylantirmoqda. Aslida esa hech bir jamiyat mehnatsiz, mas'uliyatsiz va sinovlarsiz taraqqiy eta olmaydi. Bu borada jadidlarning peshvosi Abdurauf Fitrat "Oila" asarida farzand mehnat mashaqqatini his qilmas ekan, hayotning qadriga yetmasligini alohida qayd etadi[2]. Ushbu fikr bugungi raqamli avlod tarbiyasida yanada dolzarblashmoqda.

Kitobdan uzoqlashish va kognitiv tanazzul. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan birga an'anaviy kitob mutolaasi keskin kamayib bormoqda. Kitob - bu tafakkur mehnati, chuqur fikrlash va tahlil qilish maktabidir. Ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa va tayyor axborotlar esa yoshlarni fikrlashga emas, iste'mol qilishga o'rgatmoqda. Jismoniy mehnatning kamayishi bilan uyg'unlashgan aqliy sustkashlik yoshlarning nafaqat intellektual salohiyatiga, balki oilaviy hayotga



tayyorgarligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda oddiy maishiy qiyinchiliklarga ham bardosh berolmay, ajrashib ketayotgan yosh oilalar sonining ortishi bunga yaqqol misoldir. Chunki real hayot ijtimoiy tarmoqlardagi "filtrlangan baxt" dan iborat emasligini anglash uchun yetarli ruhiy va irodaviy tayyorgarlik talab etiladi.

Jadidlar merosi: ta'lim, tarbiya va mehnat uyg'unligi modeli Jadidlar — Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat singari ma'rifatparvarlar o'z davrida matbaa, telegraf kabi texnologik yangiliklarni qo'llab-quvvatlaganlar[3]. Biroq ular uchun texnologiya hech qachon maqsad emas, balki vosita bo'lgan. Asosiy e'tibor esa milliy ruh, axloqiy tarbiya va mehnat madaniyatiga qaratilgan. Jadid maktablarida bilim berish bilan bir qatorda hunar o'rgatish, jismoniy chiniqtirish majburiy hisoblangan. "Bolaning qo'li ishda, tili ilmida bo'lsin" degan tamoyil ularning tarbiya konsepsiyasining asosi edi. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida esa intellektual rivojlanishga urg'u berilib, amaliy mehnat va hunar o'rganish ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Jadidlar qarashlariga ko'ra, tarbiya ta'limdan ustun turishi, tarbiya esa mehnat orqali shakllanishi shart. Agar yosh avlod jismoniy mehnat bilan chiniqmasdan faqat bilim olsa, u o'z salohiyatini jamiyat manfaatiga emas, balki oson va egri yo'llar orqali shaxsiy boylik orttirishga yo'naltirishi mumkin. Shu bois bugungi raqamlashtirilgan jamiyat sharoitida jadidlarning ta'lim–tarbiya–mehnat uyg'unligi modeli hayot-mamot masalasiga aylanmoqda.

JISMONIY MEHNAT TANQISLIGINING SOG'LIQ VA PSIXIKAGA TA'SIRI

Gipodinamiya va biologik tanazzul: jismoniy faollik yetishmasligining sog'liqqa ta'siri Raqamlashtirilgan jamiyat sharoitida yoshlarning katta qismi kundalik hayotini kamharakat tarzda o'tkazmoqda. Jismoniy faollikning yetishmasligi zamonaviy tibbiyotda "gipodinamiya" deb atalib, u metabolik jarayonlarning sekinlashuvi va organizmning umumiy zaiflashuviga olib keluvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Kamharakatlik natijasida ortiqcha vazn va semizlik muammosi yuzaga keladi. Bu holat nafaqat yurak-qon tomir tizimi va



ichki a'zolar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirib, ijtimoiy faollikdan chekinishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, uzoq vaqt ekran qarshisida o'tirish quyosh nuri yetishmasligi, D vitamini tanqisligi va umumiy immunitetning pasayishiga olib kelmoqda[4]. Bundan tashqari, noto'g'ri ovqatlanish — yog'li va kimyoviy qo'shimchalarga boy mahsulotlarning ko'p iste'mol qilinishi miya faoliyatining susayishiga sabab bo'ladi. Bu holat yoshlarning kognitiv qobiliyatlariga, xususan, mantiqiy fikrlash, real va virtual olamni farqlash hamda ongli qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, jismoniy mehnat va harakatning yetishmasligi faqat tashqi sog'liq muammosi emas, balki yosh avlodning biologik va intellektual salohiyatini izdan chiqaruvchi chuqur ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jismoniy faollik, ruhiy barqarorlik va psixologik muammolar o'rtasidagi bog'liqlik. Ilmiy tadqiqotlar jismoniy mehnat va harakat jarayonida inson organizmida endorfin va serotonin kabi “ruhiy barqarorlik gormonlari” ishlab chiqarilishini tasdiqlaydi. Ushbu gormonlar stressni kamaytirish, ruhiy tetiklikni saqlash va ijtimoiy moslashuvni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Aksincha, faqat virtual muhitda yashash va real mehnatdan chekinish dopamin tizimining izdan chiqishiga olib keladi. Natijada yoshlarda yolg'izlik hissi, ijtimoiy muloqotdan qochish, surunkali charchoq va ruhiy tushkunlik holatlari kuchayadi. Eng xavfli jihati shundaki, inson jismoniy mehnat natijasini ko'z bilan ko'rmaganida — masalan, ekilgan daraxt yoki yaratilgan buyum shaklida — unda o'zining jamiyat uchun foydaliligi haqidagi tasavvur susayadi. Ayrim holatlarda oilaviy muloqotning zaiflashuvi, ota-onaning farzand bilan sifatli vaqt o'tkazmasligi yoshlarning psixologik himoyasini yanada zaiflashtiradi. Oldingi avlodlarda jismoniy mehnat va oilaviy suhbatlar tabiiy muhitda shakllangan bo'lsa, bugungi raqamli muhitda bu jarayon sun'iy ravishda uzilib qolmoqda. Shu bois, jismoniy mehnatni faqat sog'lom turmush tarzi unsuri sifatida emas, balki ruhiy barqarorlik va ijtimoiy moslashuvning muhim omili sifatida ko'rish zarur.



Ma'naviy bo'shliq va ijtimoiy muhitning o'zgarishi: Zamonaviy jamiyatda psixologik xizmatlarga ehtiyojning keskin ortib borishi insonlar o'rtasidagi ma'naviy aloqalarning zaiflashganidan dalolat beradi. Ko'plab hollarda insonlar o'z muammolarini yaqinlari bilan emas, balki begona mutaxassislar bilan muhokama qilishga majbur bo'lmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri oilada dildan suhbat va o'zaro tushunish muhitining yo'qolib borayotganidir. Ijtimoiy muhitda tashqi ko'rinish va sun'iy qadriyatlarga ortiqcha urg'u berilishi ham ma'naviy muvozanatni buzmoqda. Oila va jamiyatda mas'uliyat, o'zaro hurmat va axloqiy tarbiya yetarli darajada shakllanmagan sharoitda yoshlar hayotiy yo'nalishni yo'qotib qo'yishi mumkin. Natijada ular real qadriyatlardan ko'ra, qisqa muddatli va yolg'on tasavvurlarga asoslangan hayot modellariga ergashib qolmoqda. Xulosa qilib aytganda, jismoniy mehnat tanqisligi faqat sog'liq muammosi emas, balki ma'naviy bo'shliq, ruhiy beqarorlik va jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatning buzilishi bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Ushbu muammolarni bartaraf etishda jismoniy faollik, oilaviy tarbiya va ma'naviy qadriyatlarni uyg'un holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

SHARQ TA'LIM MODELLARIDAGI YECHIMLAR: YAPONIYA VA XITOIY TAJRIBASI

Yaponiya ta'lim tizimida jismoniy mehnat va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligi. Yaponiya ta'lim modeli dunyoda nafaqat texnologik rivojlanish darajasi, balki bolalarda mehnatsevarlik, intizom va ijtimoiy mas'uliyatni erta yoshdan shakllantirishi bilan ajralib turadi. Yapon pedagogikasida bolaning faqat akademik yutuqlari emas, balki uning jamiyatga foyda keltira olish qobiliyati va jismoniy chidamliligi muhim mezon sifatida baholanadi. Maktablarda keng qo'llaniladigan "Osoji" an'anasi buning yaqqol misolidir. Ushbu tizimda farroshlar shtati deyarli mavjud bo'lmay, o'quvchilar darsdan so'ng sinf xonalari, yo'laklar va umumiy foydalanish joylarini o'zlari tozalaydilar. Bu jarayon bolalarda "mening mehnatim — mening muhitim" degan mas'uliyatli qarashni shakllantiradi. Natijada bola o'zini virtual dunyodagi xayoliy qahramon emas, balki real jamiyatning faol va mas'uliyatli



a'zosi sifatida anglay boshlaydi. Yapon oilalarida ham mehnat va muloqot madaniyati uzviy bog'langan. Kechki ovqat paytida elektron qurilmalardan foydalanmaslik odati keng tarqalgan bo'lib, "Itadakimasu" (minnatdorchilik) tamoyili asosida ovqatlanish oilaviy muloqotning muhim qismi hisoblanadi. Bu an'ana bolada minnatdorlik, hurmat va ijtimoiy bog'liqlik tuyg'ularini mustahkamlaydi[5]. Xulosa qilib aytganda, Yaponiya ta'lim tizimi jismoniy mehnatni majburiyat emas, balki shaxsni tarbiyalovchi ijtimoiy mexanizm sifatida ko'rib, yoshlarni ruhiy va jismoniy jihatdan barqaror etib voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Xitoy tajribasi: "Anji Play" metodikasi va psixologik chidamlilikni shakllantirish Xitoyda ishlab chiqilgan "Anji Play" metodikasi so'nggi yillarda xalqaro pedagogik hamjamiyat e'tiborini tortmoqda. Ushbu yondashuvda bolalar erkin muhitda, ochiq havoda, tabiiy materiallar bilan ishlash orqali jismoniy va psixologik rivojlanadi. Ular o'zlari uchun xavfsiz bo'lgan konstruksiyalar quradilar, to'siqlardan o'tadilar va jamoaviy harakatda faol ishtirok etadilar. Mazkur metodikaning eng muhim jihati — xatolar bilan ishlash madaniyatidir. Agar bolaning qurilishi muvaffaqiyatsiz yakunlansa, bu tanqid emas, balki o'rganish jarayonining bir qismi sifatida qabul qilinadi. Bola o'z xatosini tahlil qiladi va qayta urinadi. Bu jarayon psixologiyada "chidamlilik" (resilience) deb ataladigan muhim sifatni shakllantiradi. Shunday tarbiya olgan bolalar hayotdagi qiyinchiliklarni fojea sifatida emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilishni o'rganadi. Bu esa raqamli muhitdagi muvaffaqiyatsizliklar ta'sirida ruhiy tushkunlikka tushadigan avloddan farqli o'laroq, hayotiy sinovlarga bardoshli shaxslar yetishib chiqishiga zamin yaratadi[6]. Demak, "Anji Play" metodikasi jismoniy mehnat, erkinlik va mas'uliyat uyg'unligi orqali bolalarda iroda, mustaqillik va ruhiy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali model hisoblanadi.

JADIDLAR TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA MEHNAT VA JISMONIY TARBIYANING O'RNI



“Usuli jadid” maktablarida ilm va mehnat uygʻunligi Jadid maʼrifatchilari millat taraqqiyotini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki ilm va hunarning uygʻunligi orqali taʼminlash mumkinligini chuqur anglab yetganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov tashkil etgan “Usuli jadid” maktablarida oʻquvchilar zamonaviy fanlar bilan bir qatorda amaliy mashgʻulotlarga ham jalb etilgan. Jadidlar nazarida hunar egallamagan inson jamiyat va davlatga qaram boʻlib qoladi. Qaramlik esa shaxs erkinligi va irodasining susayishiga olib keladi. Bugungi kunda ayrim qatlamlarda kuzatilayotgan boqimandachilik kayfiyati jadidlar ilgari surgan “har bir inson oʻz mehnati bilan yashashi shart” degan tamoyildan uzoqlashish natijasidir. Xulosa qilib aytganda, jadidlar taʼlim tizimida mehnat shaxsni iqtisodiy mustaqil, ruhiy barqaror va ijtimoiy masʼuliyatli etib tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida qaralgan.

Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat qarashlarida ruh va tana tarbiyasi:

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani bir necha yoʻnalishga ajratib, ulardan biri sifatida “badan tarbiyasi”ni alohida taʼkidlaydi. Uning fikricha, jismonan chiniqmagan bola aqliy faoliyatda ham yuqori natijalarga erisha olmaydi. Badan tarbiyasi faqat mashqlar majmui emas, balki jismoniy mehnat orqali iroda va sabrni tarbiyalash jarayonidir[1]. Abdurauf Fitrat esa “Oila” asarida erkak kishining jamiyat va oiladagi oʻrnini masʼuliyat va himoya bilan bogʻlaydi. Unga koʻra, oʻgʻil bola yoshligidan mehnat jarayonida ishtirok etmasa, ulgʻayganda masʼuliyatdan qochuvchi, ijtimoiy jihatdan sust shaxsga aylanishi mumkin[2]. Bugungi oilaviy ajrimlar va masʼuliyatsizlik muammolarini Fitrat qarashlari bilan tahlil qilar ekanmiz, ularning ildizi aynan tarbiya jarayonida mehnatning yetishmasligiga borib taqaladi. Shu bois, jadid mutafakkirlarining ruh va tana tarbiyasi haqidagi qarashlari bugungi ijtimoiy muammolarni anglashda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Milliy oʻzlikni saqlash va jadidizm konsepsiyasi: Jadidlar Gʻarbning ilmiy va texnologik yutuqlarini qabul qilish tarafdori boʻlgan, biroq maʼnaviy va axloqiy jihatdan milliy oʻzlikni saqlashni muhim deb bilganlar. Ularning asosiy



xavotiri — tashqi taraqqiyot ichki ma'naviy bo'shliqni keltirib chiqarmasligi edi. Bugungi kunda yoshlarning soxta qadriyatlar, axloqiy chegarasiz kontent va yolg'on hayot modellari ta'siriga tushib qolishi jadidlar bashorat qilgan ma'naviy tanazzul xavfining real ko'rinishidir. Jadidlar ta'limotida inson nafsini jilovlashning eng samarali usuli — uni foydali va jismoniy mehnat bilan band qilish hisoblangan. Xulosa qilib aytganda, jadidizm nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi globallashuv sharoitida milliy o'zlikni, ijtimoiy muvozanatni va sog'lom avlodni saqlab qolish uchun muhim nazariy-amaliy modeldir.

XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

Raqamlashtirilgan jamiyat sharoitida yoshlar tarbiyasida jismoniy mehnatning kamayishi shunchaki sog'liq muammosi emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik inqirozdir. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, jismoniy harakatdan uzilgan, faqat virtual lazzatlar (Instagram, TikTok, kompyuter o'yinlari) bilan oziqlangan avlodda "iroda tanazzuli" yuzaga kelmoqda. Bu tanazzul:

Oilaviy hayotda: Erkaklarning mas'uliyatdan qochishi, "bola pozitsiyasi"da qolib ketishi va kichik qiyinchiliklar oldida ojiz qolib, ajrimlarga yo'l qo'yishi; Psixologik holatda: Real hayotdagi muammolarni xazm qila olmaslik, "soxta mehr" va "oson hayot" illyuziyasiga aldanib, pirovardida o'z joniga qasd qilish (suitsid) darajasiga yetishi;

Milliy o'zlikda: Jadid bobolarimiz orzu qilgan "kuchli, irodali va bilimli" millat konsepsiyasidan uzoqlashish kabi fojiali oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Xitoy va Yaponiya tajribasi, shuningdek, jadidlarimizning pedagogik merosi bir haqiqatni tasdiqlaydi: Mehnat — insonni nafaqat jismonan, balki ma'naviy jihatdan ham ozod qiladi. Jismoniy mehnat bilan toblangan inson o'z xatosini tan olishdan qo'rqmaydi, oson hayot ortidan quvmaydi va oilasini himoya qilishga qodir bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolarni bartaraf etish va irodali avlodni tarbiyalash uchun quyidagi innovatsion takliflarni ilgari suramiz:



1. Ta'lim tizimida "Mehnat terapiyasi" va "Anji Play" elementlarini joriy etish: Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich maktablarda bolalarning jismoniy faolligini oshirish uchun faqatgina sport emas, balki "Amaliy ijod" (bog'dorchilik, duradgorlik, oddiy taomlar tayyorlash) soatlarini kiritish. Bu bolada "men yaratuvchiman" degan ishonchni uyg'otadi va uni virtual qaramlikdan asraydi.

2. Oila institutini sog'lomlashtirish: "Dildan suhbat" soatlari: Mahalla va maktab hamkorligida ota-onalar uchun "Raqamli gigiyena va oilaviy muloqot" treninglarini tashkil etish. Bunda ota-onaga farzandi bilan telefonsiz, yuzma-yuz dildan suhbat qurish metodikasi o'rgatiladi. Jadidlarimizning "majlis" va "suhbat" an'analarini zamonaviy formatda qayta tiklash lozim.

3. Erkaklar mas'uliyatini oshirish: "Jadidlar maktabi" loyihasi: Yosh yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning jismoniy va ruhiy chidamliligini oshiruvchi kurslar tashkil etish. Kurs dasturiga jadid bobolarimizning (Fitrat, Avloniy) asarlarini o'rganish bilan birga, jamoaviy jismoniy mehnat loyihalarini (masalan, "Yashil makon" doirasida o'z bog'ini yaratish) kiritish[7].

4. Ijtimoiy tarmoqlarda "Mehnat va muvaffaqiyat" kontentini ko'paytirish: TikTok va Instagram platformalarida "oson boyish"ni emas, balki halol mehnat, hunarmandchilik va ilm orqali erishilgan real muvaffaqiyatlarni targ'ib qiluvchi milliy "challenge"lar va loyihalarni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash. **5. "Raqamli parhez" madaniyatini shakllantirish:** Haftaning bir kunini (masalan, yakshanba) butun mamlakat miqyosida "Oila va mehnat kuni" deb e'lon qilib, ushbu kunda gadjetlardan minimal foydalanish va ko'proq oilaviy amaliy mehnat (hasharlar, uy yumushlari, tabiat qo'ynida muloqot) bilan band bo'lishni targ'ib qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avloniy, A. (1992). Turkiy Guliston yoxud axloq.
2. Fitrat, A. (2000). Oila yoxud oila boshqarish tartiblari.
3. M. Behbudiy. (1913). Padarkush.
4. World Health Organization. (2024). Global status report.



- 5.Ibuka, M. (1971). Kindergartens are too late.
- 6.Anji Play. (2022). Early Childhood Education Journal.
- 7.O'zbekiston — 2030 strategiyasi. (2023).